

“YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR VA IQTISODIY MUSTAQILLIK”**Qodirov Abubakr Nodirxon o‘g‘li***Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
yo‘nalishi I- bosqich talabasi***Ilmiy rahbar: Egamberdiyev Muzaffar***Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:14.09.2025**Revised: 15.09.2025**Accepted:16.09.2025***KALIT SO‘ZLAR:***Yoshlar, iqtisodiy
mustaqillik, raqamli
iqtisodiyot, freelancing.**Ushbu maqolada O‘zbekiston yoshlarining iqtisodiy mustaqillikka erishish tendensiyalari, daromad manbalari, raqamli iqtisodiyotdagi faolligi, davlat dasturlari orqali yaratilayotgan imkoniyatlar, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Ushbu masalalarda grafik va statistik ma‘lumotlar ham ko‘rish mumkin..***KIRISH**

Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuchdir. Mamlakatimiz O‘zbekistonda ham aynan shu asnoda demografik o‘sinh asosiy ko‘rsatgichdir. Shu bilan birga, ularning iqtisodiy jihatdan erkin bo‘lishi, ya’ni mustaqil daromad topish qobiliyati – faqat shaxsiy muvaffaqiyat emas, balki butun millat taraqqiyotining kalitidir. O‘zbekiston yoshlari oxirgi yillarda faol iqtisodiy qatna shchilar sifatida namoyon bo‘lishmoqda – ular ish bilan band, biznes boshlamoqda, xizmat ko‘rsatmoqda, raqamli platformalarda ishlamoqda va xalqaro bozorga chiqmoqda. Shu bilan birga, ular turli qiyinchiliklar – norasmiy mehnat, malaka yetishmovchiligi, moliyaviy resurslarga yetarli kirish imkoni yo‘qligi, migratsion bosimlar va raqobatga ham duch kelishmoqda.

ASOSIY QISM

Ayni damda O'zbekistonda aholining juda katta qismini yoshlar tashkil etadi. Eng so'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra:

O'zbekiston aholisining yoshlar ulushi (2024-yil oxirigacha):

- Umumiy aholi soni: 37 million kishi
- 14–30 yosh oralig'idagi yoshlar: 11 million nafarga yaqin
- Foiz hisobida: 29–30% atrofida

(1-rasm) So'nggi 15 yillik davrda O'zbekiston aholisi barqaror o'smoqda.

Yil	Aholi soni (mln)	Yoshlar soni (mln)	Ulushi (%)
2010	28.5	9.0	31.6%
2015	31.0	9.5	30.6%
2020	34.0	10.5	30.9%
2023	36.5	10.9	29.9%
2024	37.0	11.0	29.7%

Ya'ni bu deganiki, har uchinchi o'zbekistonlik deyarli yosh hisoblanadi.

Demak demografik jihatdan O'zbekiston "yosh jamiyat" hisoblanadi. Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish uchun bu ulkan imkoniyat – agar yoshlar to'g'ri yo'naltirilsa. Biroq bu yuqori bandlik bosimi, ish o'rinlari yaratish zarurati, ta'lim va kasbga yo'naltirish masalalarini ham keltirib chiqarmoqda.

2024-yilgi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston yoshlarining asosiy daromad manbalari quyidagicha taqsimlangan:

(2-rasm) Yoshlarning asosiy daromad manbalari (2024-yil statistika asosida)

Daromad manbasi	Ulushi (%)
Davlat sektori	25%
Xususiy sektor (ishchi)	18%
Mehnat migratsiyasi	20%
Freelance (raqamli xizmat)	15%
Tadbirkorlik	10%
Onlayn savdo / marketing	7%
Boshqa manbalar	5%

Bu statistikadagi eng muhim jihat – yoshlarning katta qismi (taxminan 32%) an'anaviy sektordan tashqari faoliyat (freelance, onlayn savdo, migratsiya) orqali daromad topmoqda. Bu yangi iqtisodiy dinamikani bildiradi: yoshlar internet, texnologiya va kreativ xizmatlarga tayangan holda o'z mustaqilligini mustahkamlamoqda.

Bugungi kunda yoshlar internet, raqamli texnologiyalar va kreativ xizmatlardan faol foydalanib, o'z iqtisodiy mustaqilligini oshirishga intilmoqda. Bu jarayon nafaqat ularning shaxsiy daromadlarini oshirish, balki mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy tuzumiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Avvalo, yoshlarning texnologiyaga asoslangan iqtisodiy faoliyati yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Internet orqali amalga oshirilayotgan startaplar, frilans xizmatlari, onlayn savdo va boshqa kreativ faoliyatlar iqtisodiyotni diversifikatsiya qiladi hamda raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlarni ko'paytiradi. Natijada, mamlakat iqtisodiyoti yangi darajaga ko'tarilib, tashqi bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy jihatdan qaraganda, yoshlarning texnologik imkoniyatlarga tayangan holda mustaqil iqtisodiy faoliyat yuritishi, jamiyatdagi ishsizlik muammosini kamaytiradi, yoshlarda o'zini anglash va mas'uliyat hissini oshiradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va jamiyatda tengsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlar o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali yangi madaniy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshiradi, bu esa jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini oshiradi. Yoshlarning internet va texnologiyalarga tayangan holda iqtisodiy mustaqilligini oshirishi mamlakat iqtisodi uchun innovatsion va barqaror rivojlanish imkonini yaratadi, ijtimoiy qatlamlar uchun esa yangi imkoniyatlar va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

Davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar

O'zbekiston Respublikasi hukumati yoshlarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish va ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash maqsadida bir qator strategik dasturlar va tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Bu tashabbuslar yoshlarning kasb-hunar tayyorlashidan tortib, ularni startaplar yaratish va raqamli iqtisodiyotda faol bo'lishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi.

Masalan, «Yoshlar – kelajagimiz» dasturi doirasida yoshlarni malaka oshirish va innovatsion g'oyalarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatilmoqda. Ushbu dastur yosh tadbirkorlar uchun grantlar, kreditlar va konsultatsiya xizmatlarini taqdim etadi, bu esa ularning o'z biznesini boshlashiga katta turtki beradi.

Shuningdek, O'zbekiston Prezidentining «Raqamli O'zbekiston» dasturi yoshlar o'rtasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bu dastur orqali yoshlar IT sohasida yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllantirilmoqda. Bu esa ularning zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardosh bo'lishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, «Bandlik va mehnat munosabatlari agentligi» tomonidan yoshlar uchun maxsus ishga joylashish markazlari tashkil qilinib, unda ularga ish o'rinlari bilan ta'minlash, mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha ko'mak berilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston hukumati tomonidan yoshlarni iqtisodiy faoliyatga jalb etish uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar va dasturlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

- “Yoshlar daftari” orqali 500 mingdan ortiq yoshlar ijtimoiy va iqtisodiy yordam oldi.
- “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida 2023-yilda 150 mingga yaqin yoshlar imtiyozli kreditga ega bo'ldi.
- “Startup Milliy G'oya”, “IT Park”, “Yoshlar texnoparklari” orqali minglab yoshlar innovatsion loyihalarga jalb qilinmoqda.
- “Ishga marhamat” monomarkazlari orqali 400 mingdan ortiq yoshlar kasbga o'qitilgan.

Bu siyosatlar orqali yoshlar real iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishmoqda, ayniqsa chekka hududlarda.

Raqamli iqtisodiyot - hozirda keng imkoniyatlarning zamiridir desak, also adashmagan bo'lamiz. Dunyoda raqamlashuv va modern islohatlari jadallashuvi boshlangan ekan bugungi kunda yoshlar uchun eng mos keladigan va tez daromad keltiruvchi maydonga aylanmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra:

- O'zbekistonlik 35 mingdan ortiq yosh freelancerlar Upwork, Fiverr, Freelancer.com kabi platformalarda faoliyat yuritmoqda.
- Ularning o'rtacha oylik daromadi 300–800 AQSH dollari oralig'ida.
- Eng ko'p xizmatlar: grafik dizayn, veb dasturlash, kontent yozish, tarjima, SMM.

Bu sohada eng katta ustunlik – yoshlar o'z bilim va ko'nikmalariga tayanib, xatto ofisga bormasdan, xalqaro mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatining mavjudligidir. Bu esa o'zi-o'zidan vaqtni tejash va samarali kun tartibiga ham olib keladi.

Ko'plab yoshlar (xususan, chekka hududlardagi) norasmiy yoki vaqtinchalik ishlarda band. Bu ularga:

- Pensiya tizimi, ijtimoiy himoya, kredit olish imkonini bermaydi
- Turg'un daromad va o'sish kafolati mavjud emas
- Mehnat huquqlari kafolatsiz qoladi

Shuningdek, ko'plab iqtidorli yoshlar chet elga chiqib ketmoqda. 2023-yilda 150 mingdan ortiq yosh mutaxassislar Rossiya, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH va boshqa davlatlarga mehnat migratsiyasiga ketgani aniqlangan. Buning oldini olish uchun esa mamlakatda yoshlarni jalb qiluvchi soha va yo'nalishlarga yana ham keng tarmoqlar qo'shildi. Startaplar, texnologik rivojlanish va inkubatsiya va hokazolar.

Yoshlarning innovatsion salohiyatini ochish uchun hukumat:

- 20 dan ortiq texnoparklar ochgan
- Startap g'oyalarga 2023-yilda 200 milliard so'm mablag' ajratgan
- "IT Bilim", "One Million Uzbek Coders" kabi loyihalarni qo'llab-quvvatlamqda.

Natijada, minglab yoshlar sun'iy intellekt, dasturlash, elektron tijorat, agrotexnologiyalar yo'nalishlarida faoliyat boshlagan.

XULOSA

O'zbekistonda yoshlarga yo'naltirilgan islohotlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli tashabbuslar yoshlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni raqamli va kreativ iqtisodiyotga faol jalb qilish imkonini yaratmoqda. Bu esa yoshlarni nafaqat o'zining iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga, balki mamlakat iqtisodiy tarmoqlarining innovatsion va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, yoshlarni zamonaviy iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish orqali O'zbekiston iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishda yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu jarayon mamlakatni yanada global iqtisodiy maydonda raqobatbardosh qilish va kelajak avlod uchun barqaror infratuzilma yaratishda muhim omil bo'ladi.

Shuningdek, yoshlarga qaratilgan islohotlar ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilinishi, ayniqsa innovatsion texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanish orqali, yangi ish o'rinlari va biznes yo'nalishlarini shakllantirishga yordam beradi. Bu nafaqat ishsizlik darajasini pasaytiradi, balki yoshlarning o'zlarini ijtimoiy jihatdan faol va jamiyat uchun foydali shaxs sifatida his qilishlariga olib keladi.

Bundan tashqari, zamonaviy islohotlar yoshlarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga va ularni global iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli

=====
iqtisodiyot va texnologik innovatsiyalar yoshlarning ijodkorligini va tadbirkorlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu tariqa, yoshlar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida faollik ko'rsatib, barqaror rivojlanish va raqobatbardosh muhitni shakllantirishda muhim omilga aylanishadi.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi statistik byulleteni, 2024-yil.
2. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari – stat.uz (<https://stat.uz/>)
3. IT Park Uzbekistan hisobotlari – it-park.uz (<https://it-park.uz/>)
4. Yoshlar ishlari agentligi ma'lumotlari – yoshlar.gov.uz (<https://yoshlar.gov.uz/>)
5. Lex.uz – hukumat qarorlari va dasturlari